


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

O'quv-uslubiy boshqarma  
tomonidan ro'yxatga olindi  
№ 2014000256  
2014 yil 20 avgust

Institut Kengashining  
№1-sonli qarori bilan  
TASDIQLANGAN  
(2014 yil 22 avgust)



**MAXSUS KURS (PENSIYA TA'MINOTINING  
DOLZARB MASALALARI)**

**O'QUV DASTURI**

**Oliy ta'limning**

<b>Bilim sohasi:</b>	200000	– Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
<b>Ta'lim sohasi:</b>	230000	– Iqtisod
<b>Ta'lim mutaxassisligi:</b>	5231300	– Pensiya ishi

Toshkent – 2014

Fanning o‘quv dasturi Toshkent moliya institutida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

- Haydarov A. – TMI, “G‘aznachilik ishi” kafedrası katta o‘qituvchisi  
Hamdamov Sh.K. – TMI, “G‘aznachilik ishi” kafedrası katta o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

- Haydarov N.H. – Toshkent moliya instituti, ilmiy ishlar bo‘yicha institut prorektori, i.f.d., prof.  
Po‘latov D.H. – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi Moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish va to‘lovlarni amalga oshirish bo‘limi boshlig‘i, i.f.n., dots.

Fanning o‘quv dasturi institut Ilmiy-uslubiy Kengashining 2014 yil 22 avgustdagi №1-son majlis bayoni bilan tanlov fani sifatida ma’qullangan

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va keng ko‘lamli islohotlar sharoitida talabalarning nazariy va amaliy bilimlarni chuqur egallashlari jumladan, ularda maxsus fanlarni o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari, o‘quv-uslubiy, texnik va informatsion ta‘minoti, ma‘ruza va amaliy mashg‘ulot darslarini o‘tkazish va talabalar bilimini baholash metodikasi, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlarni o‘tkazish metodikasi bo‘yicha ko‘nikmalarni hosil qilish muhim vazifalardan hisoblanadi.

### O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

“Maxsus kurs (Pensiya ta‘minotining dolzarb masalalari)”ni o‘qitishdan maqsad – talabalarga iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat pensiya ta‘minotining dolzarb masalalarini, tizimdagi islohatlar, ularning tashqiliy-huquqiy asoslari to‘grisida nazariy va amaliy ma‘lumotlar berish hisoblanadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o‘z predmetini o‘rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- Pensiya ta‘minoti tizimining islohotlar va uning tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rganish
- Pensiya jamg‘armasi daromadlari barqarorligini ta‘minlash va xarajatlarini samaradorligini ta‘minlashning dolzarb masalalarini o‘rganish;
- Yoshga doir pensiyalarni hisoblash va to‘lash tartibining hozirgi zamon muammolarini o‘rganish;
- Davlat ijtimoiy sugurtasi tizimidagi nafaqalar va boshqa nafaqalarni tayinlash tizimidagi islohatlar;
- Xorijiy davlatlar pensiya ta‘minoti tizimlari va ularning ijobiy natijalarini O‘zbekiston Respublikasida tadbiq etish istiqbollari o‘rganish.

### Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

“Maxsus kurs (Pensiya ta‘minotining dolzarb masalalari)” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- pensiya ta‘minoti tizimidagi islohatlarning asosiy yo‘nalishlarini;
- pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarini rejalashtirishning dolzarb masalalarini;
- yoshga doir pensiyalarni hisoblash va to‘lash tartibining hozirgi zamon muammolarini;
- xorijiy davlatlar pensiya tizimlari va ularning amaliyoti haqida *tasavvurga ega bo‘lishi*;
- yoshga doir pensiyalarni hisoblash va to‘lash tartibini

- Davlat ijtimoiy sug‘urtasi va boshqa nafaqalarni tayinlash tartibi;
- jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti tizimi;
- pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish metodikasini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
- pensiya tizimidagi islohatlar;
- pensiya ta‘minotini faoliyatini yuritish *malakalariga ega bo‘lishi kerak*.

### **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

“Maxsus kurs (Pensiya ta‘minotining dolzarb masalalari)” fani institutda o‘rganiladigan boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog‘liqdir. Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejalashtirilgan fanlaridan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni**

“Maxsus kurs (Pensiya ta‘minotining dolzarb masalalari)” fani talabalarda maxsus fanlarni o‘qitish bo‘yicha umumlashtirilgan nazariy, metodologik, amaliy bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish hisoblanadi. Fanning asosiy vazifasi amaliyotda talabalarni iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlarida pedagog sifatida faoliyat ko‘rsatishiga zamin tayyorlash, ular pedagogik faoliyatining samarali bo‘lishini ta‘minlashdan iboratdir.

### **Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarining “Maxsus kurs (Pensiya ta‘minotining dolzarb masalalari)” fanini o‘zlashtirishlari uchun ilg‘or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma‘ruza matnlari, tarqatma materiallar, multimediya materiallari hamda budjet amaliyotidagi rasmiy xujjatlar (xarajatlar smetasi, balans) va hisobotlardan foydalaniladi. Ma‘ruza va amaliy darslarda mos ravishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan: aqliy hujum, situatsion vazifalarni echish, kichik guruhlarda topshiriqlar bajarish, amaliy ish o‘yinlaridan foydalaniladi.

### **Asosiy qism**

#### **Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni**

#### **Pensiya ta‘minoti tizimining islohotlar va uning tashkiliy-huquqiy asoslari**

O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy qullab-quvvatlashning zarurligi, tizimdagi asosiy islohotlarning yo‘nalishi. Pensiya jamgarmasining aholini ijtimoiy

ta'minotini amalga oshirishdagi ahamiyati va vazifalari. Pensiya ta'minoti tizimidagi qonuniy-huquqiy hujjatlar. Pensiya ta'minoti tizimidagi qonuniy-huquqiy hujjatlarning asosiy mazmuni va maqsadi. Pensiya tizimi qonunchiligining takomillashuvi.

### **Pensiya jamg'armasi daromadlari barqarorligini ta'minlash va xarajatlarini samaradorligini ta'minlashning dolzarb masalalari**

Pensiya jamg'armasining daromadlari, ularning tarkibi, shakllanish mexanizmi. Pensiya jamg'armasi xarajatlari tarkibi, ularning hozirgi holati va uning tahlili. Iqtisodiyotni erkinlashuvi sharoitida Pensiya jamg'armasi daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari. Pensiya jamg'armasi xarajatlari samaradorligini ta'minlash. Islohotlarning hozirgi bosqichida Pensiya jamg'armasi xarajatlarini optimallashtirish.

### **Yoshga doir pensiyalarni hisoblash va to'lash tartibining hozirgi zamon muommolari**

Yoshga doir pensiyani olish huquqi. Ish staji to'liq bo'lmagan holda pensiyalarni to'lash. Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiyalarni to'lash. Yoshga doir pensiyalarni muddatidan oldin tayinlash va to'lash tartibi. Hozirgi kundagi yoshga doir pensiyalarni tayinlashning muommolari.

### **Davlat ijtimoiy sugurtasi tizimidagi nafaqalar va boshqa nafaqalarni tayinlash tizimidagi islohatlar**

Davlat ijtimoiy sugurtasining zarurligi va ahamiyati. Davlat ijtimoiy sugurtasi tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari. Dafn marosimlari uchun nafaqalarni tayinlash tizimidagi islohotlar. Bola tug'ulganda beriladigan nafaqalar. Qo'shimcha dam olish kunlari uchun nafaqa tizimi va undagi islohotlar.

### **Xorijiy davlatlar pensiya ta'minoti tizimlari va ularning ijobiy natijalarini O'zbekiston Respublikasida tadbiq etish istiqbollari**

Xorijiy davlatlarda ijtimoiy siyosat yo'nalishlari va ularni amalga oshirishga mas'ul ijtimoiy institutlar. Xorijiy davlatlar pensiya tizimlari turlariga umumiy tavsif. Rivojlangan xorijiy davlatlar pensiya tizimlari. MDH davlatlari pensiya ta'minoti tizimlarining o'ziga hos xususiyatlari. Bu davlatlar pensiya tizimlaridagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari. Xorijiy mamlakatlar pensiya ta'minoti tizimidagi ijobiy natijalarini O'zbekistonda tadbiq etish istiqbollari. Pensiya ta'minotini samarali boshqarishdagi muammo va echimlar.

### **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

– ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari va audit standartlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

– berilgan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;

– seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

– amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;

– ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash;

– fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;

– nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

– amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;

– ilmiy maqola, anjumanga dokladlar, ma'ruza tezislari tayyorlash;

– o'rganilayotgan fan bo'yicha mavjud asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni:

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Maqsad talabalarni mustaqil o'qishga o'rgatishdir. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning asosiy tamoyillari uning sistematik tarzda, ya'ni doimiy uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Talaba auditoriyada olgan bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun har kuni mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rish kerak.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:**

- Pensiya ta'minoti tizimining islohotlar va uning tashkiliy-huquqiy asoslari;
- Pensiya jamg'armasi daromadlari barqarorligini ta'minlash va xarajatlarini samaradorligini ta'minlashning dolzarb masalalari;
- Yoshga doir pensiyalarni hisoblash va to'lash tartibining hozirgi zamon muammolari;
- Davlat ijtimoiy sugurtasi tizimidagi nafaqalar va boshqa nafaqalarni tayinlash tizimidagi islohatlar;
- Xorijiy davlatlar pensiya ta'minoti tizimlari va ularning ijobiy natijalarini O'zbekiston Respublikasida tadbiq etish istiqbollari.

Mustaqil ta'lim talabani mazkur ishni individual ravishda bajarish qobiliyatidir. Mustaqil ta'limning maqsadi - talaba o'z faoliyatida o'quv dasturi doirasidagi kerakli nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishidir. Bu bilimlar mustaqil ish vazifalarini samarali bajarishga imkoniyat yaratadi. Talaba o'z xohishi bo'yicha mustaqil ta'lim mavzusi hamda maslahatchini kafedra bilan kelishishi mumkin.

### **Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy interfaol metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari,

prezentatsion, elektron didaktik) texnologiyalari qoʻllanilishi nazarda tutilgan.

Oʻquv jarayonini tashkil etishda mavzularni koʻrgazmali vositalardan, slaydlar, diaproektor va jadvallardan foydalanish asosida oʻrganish koʻzda tutilgan. Ayrim amaliy mashgʻulotlarni bajarishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish tavsiya etiladi. Tahlillar, prognozli koʻrsatgichlarni hisoblash, diagrammalarni, shaxsiy kompyuterda elektron jadvallarda Excel dasturi bilan ishlash orqali yorqin namoyon etish mumkin.

### **Darsliklar va oʻquv qoʻllanmalar roʻyxati**

#### **Asosiy:**

1. Srojiddinova Z.X. Oʻzbekiston Respublikasi budget tizimi. T.:Infocom. 2010. – 500 b.
2. Нешчитой А.С. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник. М.: Издателско-торговая корпорация "Дашков и К". 2012. - 336 с
3. Xaitov A.A., Ziyadullaev M. Oʻzbekistonda pensiya taʼminoti va xorij tajribasi. –T.: “Adolat”. 2009. - 172 b.
4. Qosimova G.A. Budjetdan tashqari fondlar. Oʻquv qoʻllanma. –T.: IQTISOD-MOLIYA. 2007. -148 b.
5. Qosimova G.A, Karimova Z.X. Budjetdan tashqari fondlar. Oʻquv qoʻllanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. - 202 b.

#### **Qoʻshimcha:**

1. Vahobov A., Malikov T. Moliya: Umumdavlat moliyasi. Oʻquv qoʻllanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2010. - 595 b.
2. Кадомцева С.В. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. -352 с.
3. Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: “Вузовский учебник”. 2011. -224 с.
4. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamgʻarmalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b.

5. Internet saytlari:

[www.mf.uz](http://www.mf.uz)

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[www.stat.uz](http://www.stat.uz)

[www.pfru.uz](http://www.pfru.uz)

[www.undp.uz](http://www.undp.uz)

[www.publicfinance.uz](http://www.publicfinance.uz)

